

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245



Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vilniaus Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 87-sahifa.
2026-yil, sentabr.





MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ

Стратегии цифровой трансформации в Европейском союзе и потенциал институционального трансфера Французского опыта в Узбекистан.....11

ERGASHEV RUSTAM RAJABOVICH

Ilmiy ishlanmalar asosida Spin-off korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishning bosqichli boshqaruv modeli.....25

ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA

Temir yo'l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilg'or mexanizmlari.....34

ABDULLAYEV ILYOS AXMADOVICH, JABBOROV JAMOLIDDIN MUXAMMADJON O'G'LI

Surxondaryo viloyatida demografik jarayonlarning statistik tahlili.....44

XASANOV SANJARBEK ABDUMANNOBOVICH

Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya darajasini baholash uslubiyoti ("Farg'onaazot" AJ misolida).....50

ABDURAZAKOVA NARGIZA RIXSIBAYEVNA

Aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar: O'zbekistonning uchta aksiyadorlik jamiyati misolida panel tahlil.....57

SULTANOVA ZUXRA JAKSILIKOVNA

Qaraqalpaqstan Respublikasida region ekonomikasini rivojlantirishda IT park xizmatini amalga oshirish masalalari ham paydalanilgan mumkinshiliklari.....69

ERGASHEV G'İYOS BAXROM O'G'LI

Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish zarurati.....76

URMANOVA UMIDA XAKIMDJANOVNA

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish holati va rivojlanish tendensiyalari.....87





SANOAT TARMOQLARIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

URMANOVA UMIDA XAKIMDJANOVNA

Astraxan davlat texnika universiteti

Toshkent viloyati filiali dotsenti, i.f.f.d., (PhD)

E-mail: urmanovau@mail.ru

ORCID: 0000-0002-2077-3452

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etishning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Sanoat ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishini ta'minlashda investitsiyalarning o'rni, investitsiya manbalari, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari hamda investitsion faollikka ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Shuningdek, sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsion va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, investitsiya infratuzilmasini takomillashtirish hamda hududlarning investitsiyaviy salohiyatidan samarali foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot yakunida sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, investitsiya, xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, sanoat tarmoqlari, modernizatsiya, innovatsiya, investitsiya infratuzilmasi, raqobatbardoshlik, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье анализируются текущее состояние и тенденции развития привлечения инвестиций в отрасли промышленности. Освещены роль инвестиций в обеспечении устойчивого развития промышленного производства, источники инвестиций, возможности привлечения иностранных и местных инвестиций, а также факторы, влияющие на инвестиционную активность. Также были рассмотрены вопросы модернизации промышленности, развития инновационных и высокотехнологичных производств, совершенствования инвестиционной инфраструктуры и эффективного использования инвестиционного потенциала регионов. По итогам исследования разработаны предложения и рекомендации по повышению эффективности привлечения инвестиций в отрасли промышленности.

Ключевые слова: промышленность, инвестиции, иностранные инвестиции, инвестиционная среда, отрасли промышленности, модернизация, инновации, инвестиционная инфраструктура, конкурентоспособность, экономическое развитие.

Abstract. This article analyzes the current state and development trends of attracting investment into industrial sectors. The role of investments in ensuring the sustainable development of industrial production, investment sources, opportunities for attracting foreign and local investments, and factors influencing investment activity are highlighted. Issues of industrial modernization, the development of innovative and high-tech industries, the improvement of investment infrastructure, and the effective use of the investment potential of the regions were also considered. As a result of the study, proposals and recommendations were developed to increase the efficiency of attracting investment into industrial sectors.

Keywords: industry, investment, foreign investment, investment climate, industrial sectors, modernization, innovation, investment infrastructure, competitiveness, economic development.

KIRISH

Bugungi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlarida sanoat tarmoqlarini samarali boshqarish hamda ularning raqobatbardoshligini oshirish har bir davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini oshirish va eksport salohiyatini





kuchaytirishda investitsiyalardan oqilona foydalanish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli sanoat tarmoqlarini samarali boshqarishda investitsiyalardan foydalanish masalasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, sanoat iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda jahon ishlab chiqarish sanoati o'sishi 2,9 foizni tashkil etgan bo'lib, bunda innovatsion texnologiyalar va investitsiyalar asosiy omil sifatida qayd etilgan[1]. Shuningdek, hisobotda sanoat tarmoqlaridagi har bir yangi ish o'rni iqtisodiyotning boshqa sohalarida yana ikkita ish o'rni yaratilishiga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Sanoat tarmoqlarini samarali boshqarishda investitsiyalardan foydalanish darajasini baholash iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi, ishlab chiqarish hajmini oshirishi hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishi ko'p jihatdan investitsiya resurslaridan qay darajada samarali foydalanilayotganiga bog'liqdir. Shu sababli investitsion faoliyat natijadorligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish va ularni amaliyotda qo'llash sanoat boshqaruvining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini aniqlashda iqtisodiy, moliyaviy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari alohida ahamiyatga ega. Xususan, investitsiyalarning rentabellik darajasi, kapital qo'yilmalar samaradorligi, investitsiya qaytimi, sof joriy qiymat, ichki daromadlilik normasi, ishlab chiqarish hajmining o'sishi hamda mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlar investitsiya faoliyatining natijadorligini baholash imkonini beradi. Mazkur ko'rsatkichlar orqali korxonalarda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samarasini aniqlash, moliyaviy barqarorlikni baholash hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash mumkin bo'ladi.

Jahon amaliyotida sanoat tarmoqlariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar samaradorligini baholashda innovatsion rivojlanish, energiya tejamkorlik, eksport salohiyati va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi kabi ko'rsatkichlarga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki zamonaviy sanoat taraqqiyoti nafaqat investitsiya hajmiga, balki ularning sifat jihatdan samarali yo'naltirilishiga ham bog'liqdir. Shu jihatdan investitsiyalardan foydalanishning asosiy ko'rsatkichlarini ilmiy asosda tahlil qilish sanoat korxonalarining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda sanoatni rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda hududlarga investitsiyalarni faol jalb qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu jarayonlar sanoat





tarmoqlarini boshqarishda investitsiyalardan samarali foydalanishning nazariy va uslubiy jihatlarini tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Sanoat tarmoqlarini samarali boshqarishda investitsiyalardan foydalanishning iqtisodiy mohiyati, ilmiy-nazariy yondashuvlari, investitsiya faoliyatining asosiy tamoyillari hamda investitsion boshqaruv samaradorligini belgilovchi omillar yoritiladi. Shuningdek, investitsiyalarning sanoat korxonalari faoliyatidagi o'rni va ahamiyati bo'yicha mahalliy hamda xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinadi.

Investitsiya iqtisodiyotning har qanday tarmog'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uni tarmoqlararo to'g'ri taqsimlash hamda samarali foydalanish asosida bu tarmoq orqali iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatish mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev investitsiya asosida iqtisodiyotni rivojlantirishga doir quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edilar: "Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz" [2]. Investitsiyalarni jalb etish hajmini oshirish bilan bir qatorda, ularni iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida oqilona taqsimlash va yuqori samaradorlikka ega yo'nalishlarga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, texnologik yangilanish va qo'shimcha ish o'rinlarini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

UNIDO sanoat siyosatining nisbatan kengroq ta'rifini keltirgan holda, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi biznes-muhitni yaxshilashini, iqtisodiy faoliyat tuzilishi o'zgarishini, iqtisodiyotga texnologiyalarni yo'naltirishni va buning natijasida mamlakatdagi iqtisodiy o'sish ta'minlanishini ta'kidlaydi[3]. Ushbu yondashuv sanoat siyosati va investitsiya siyosatining o'zaro uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Bizningcha, qulay biznes-muhitni shakllantirish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish va ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish sanoat tarmoqlarining investitsiyaviy jozibadorligini oshiruvchi asosiy omillardandir.

Lin va Chang ishlarida sanoat siyosatiga yangi ishlab chiqarishni yaratish, xususiy sektorni qo'llab - quvvatlash, raqobat ustunliklaridan foydalanish yo'nalishi sifatida qaraladi[4]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, sanoatga investitsiyalarni jalb etishda xususiy sektorning imkoniyatlarini kengaytirish va mavjud raqobat ustunliklaridan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Shu sababli investitsiya siyosatida nafaqat investitsiya hajmi, balki uning xususiy sektor faolligi va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini ham baholash lozim.

A.G.Polozyukning ta'rifiga ko'ra, sanoat siyosati - milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasida davlat strategiyasining muhim vositasi bo'lib, u xo'jalik subektlari bilan davlat munosabatlarini optimallashtirish, hamda iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishdagi bozor mexanizmlarini tartibga solish (tarmoq, tarmoqlararo va hududiy)ni nazarda tutadi[5]. Ushbu fikr sanoat siyosatini faqat alohida tarmoqlar doirasida emas, balki tarmoqlararo va hududiy rivojlanish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib,





investitsiyalarni jalb etish ko'rsatkichlarini tarmoq va hududlar kesimida tahlil qilish investitsiya siyosatining real samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Ta'kidlash lozimki, sanoat siyosati o'z navbatida mamlakatimiz olimlarining ham ilmiy qiziqishlarining predmeti bo'lib kelmoqda. Jumladan, H.R.Hamroyevning ta'kidlashicha, sanoat siyosatini milliy manfaatlar nuqtai nazaridan biznes rivojini rag'batlantirish asosida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan davlatning chora - tadbirlari shaklida tushunish mumkin. Bu siyosat milliy iqtisodiyotga mavjud bo'lgan nisbiy ustunliklarni realizatsiya qilishga xizmat qiladi, mamlakatda ishlab chiqarishning nisbatan yuqoriroq texnologik usulini shakllanishiga ko'maklashadi. Mazkur siyosat birinchi navbatda sanoat va boshqa industrial tarmoqlarni jadal o'stirishga qaratilgan bo'ladi[6]. Mazkur yondashuv sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etishning asosiy maqsadi faqat kapital hajmini oshirish emas, balki iqtisodiyotning texnologik va raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat ekanligini ko'rsatadi. Shu bois investitsiyalar samaradorligini baholashda yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish unumdorligi va eksport salohiyatining o'sishi kabi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

A.V.Vaxabov, SH.X.Xajibakiyev, N.G.Muminovlar "Xorijiy investitsiyalar" nomli o'quv qo'llanmalarida iqtisodiyotni modernizatsiyalashda sanoat siyosati muhim o'rin tutishini ta'kidlab, unga quyidagicha ta'rif beradilar: "Sanoat siyosati - bu ishlab chiqarishning o'sishiga, fan - texnika yutuqlarini ishlab chiqish va joriy etishga, iqtisodiyotning tarmoq tarkibini yaxshilashga va tayyor mahsulot eksportini rivojlantirishga qaratilgan davlatning uzoq muddatli chora - tadbirlar majmuidir"[7]. Ushbu ta'rif sanoat siyosatining investitsiyalar bilan bog'liq asosiy yo'nalishlarini kompleks ravishda ifodalaydi. Bizningcha, sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish samaradorligini baholashda ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan bir qatorda, innovatsion faollik, tarmoq tarkibining diversifikatsiyasi va eksport hajmining o'zgarishi ham muhim mezon sifatida qaralishi lozim.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etishning asosiy ko'rsatkichlarini faqat investitsiyalar hajmi bilan cheklab qo'ymasdan, ularning iqtisodiy natijadorligini ham qamrab olgan holda baholash maqsadga muvofiq. Xususan, investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushi, xorijiy investitsiyalar hajmi, investitsiyalarning tarmoq tarkibi, yaratilgan yangi ishlab chiqarish quvvatlari, mehnat unumdorligi, yangi ish o'rinlari, eksport hajmi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi sanoat tarmoqlarining investitsiyaviy rivojlanishini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlar sifatida qaralishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.





TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy o'sish sur'atlari, ishlab chiqarish salohiyati hamda investitsion faollik darajasini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich orqali sanoat tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalari va iqtisodiyotdagi ulushi baholanadi.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1-rasm. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik) (mlrd.so'm)

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yillar davomida barqaror o'sib borgan. Jumladan, 2010-yildagi 38 119,0 mlrd so'mdan 2024-yilda 880 198,5 mlrd so'mga yetgan. Natijada ushbu davrda sanoat ishlab chiqarish hajmi 23,1 barobarga oshgan. Ayniqsa, 2020–2024-yillarda o'sish sur'atlarining yuqoriligi sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish salohiyati va investitsiya faolligining ortganligini ko'rsatadi. Mazkur ijobiy dinamika sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni faol jalb etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq.

So'nggi yillarda mamlakatimizda investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash hamda ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, iqtisodiyotda sanoat ulushini oshirish, qayta ishlash sanoatini kengaytirish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada mamlakatimizda kimyo, to'qimachilik, elektrotexnika, qurilish materiallari, farmatsevtika, oziq-ovqat va metallurgiya kabi strategik tarmoqlarda yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda.


Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilishning hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, mavjud imkoniyat va muammolarni aniqlash, investitsion jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki investitsiyalar sanoat korxonalarining



ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi farovonligini oshirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni samarali jalb qilish va ulardan oqilona foydalanish masalalarini tadqiq etish iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sanoat tarmoqlari tarkibida mashinasozlik va metallni qayta ishlash sohasi 11,3 foiz, kimyo va neft-kimyo sanoati 8,7 foiz hamda elektrotexnika tarmog'i 7,5 foizlik ulushni egallab, ushbu yo'nalishlarning izchil rivojlanayotganini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, energetika va yoqilg'i-energetika kompleksida mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotgani kuzatiladi. Jumladan, energetika tizimida quvvatlardan foydalanish darajasi 68–72 foiz oralig'ida bo'lib, ayrim resurslarning to'liq ishga solinmaganligini anglatadi.

So'nggi besh yil davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, 2025-yil yanvar–dekabr oylarida ushbu ko'rsatkich 2021 yilga nisbatan qariyb 1,8 barobarga oshdi (2-rasm).



Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi


2021–2025-yillar davomida iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi va ularning o'sish sur'atlarini aks ettirilib, ushbu davr mobaynida investitsiyalar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, mamlakat iqtisodiyotida investitsion faollikning ortib borayotganini ifodalaydi.

2-rasmda 2021-yilda investitsiyalar hajmi 236,6 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 266,2 trln so'mga yetgan. 2023-yilda investitsiyalar hajmi 356,1 trln so'mga oshib, oldingi yilga nisbatan sezilarli o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, 2024-yilda investitsiyalar hajmi 507,5 trln so'mni tashkil etib, eng yuqori o'sish bosqichiga chiqqan. 2025-yilda esa investitsiyalar hajmi



591,1 trln so'mga yetgan bo'lib, umumiy hisobda 2021-yilga nisbatan qariyb 2,5 barobar oshgan.

3-rasmda sanoat ishlab chiqarish tarkibini tarmoqlar bo'yicha foizlarda ifodalaydi va iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasini aks ettiradi. Unda eng katta ulush "Boshqa faoliyat turlari"ga tegishli bo'lib, 35,1 foizni tashkil etadi. Bu holat sanoat tarkibining keng diversifikatsiyalashganini va turli kichik yo'nalishlar yig'indisi umumiy ishlab chiqarishda muhim o'rin egallashini ko'rsatadi.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

3-rasm. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi (2026 yil 1 yanvar holatiga ko'ra)

Ikkinchi yirik yo'nalish sifatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 20,0 foiz ulush bilan ajralib turadi. Ushbu tarmoq aholi ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, barqaror talabga ega hisoblanadi. Shuningdek, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 13,8 foizni tashkil etib, qurilish va infratuzilma sohalarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kiyim ishlab chiqarish 10,0 foiz ulushga ega bo'lib, yengil sanoatning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish 8,0 foizni tashkil etadi va sanoatning texnik yo'nalishidagi muhim segment hisoblanadi. Mebel ishlab chiqarish 6,9 foiz ulush bilan ichki bozor ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa 6,2 foizni tashkil etib, eksport salohiyatiga ega bo'lgan yengil sanoat tarmog'idir.

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etishning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, avvalo, investitsiyalar hajmini oshirish, xorijiy kapitalni keng jalb etish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish va hududlarning investitsion salohiyatidan samarali foydalanish bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, investitsiya jarayonlarida raqamlashtirish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ortib bormoqda (1-jadval).





1-jadval

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etishning asosiy rivojlanish tendensiyalari

№	Rivojlanish tendensiyasi	Asosiy mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Investitsiyalar hajmining oshishi	Sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga investitsiyalarni ko'paytirish	Ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy faollikning oshishi
2	Xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish	Xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish	Zamonaviy texnologiyalar va qo'shimcha moliyaviy resurslarning kirib kelishi
3	Yuqori texnologiyali loyihalarga yo'naltirish	Investitsiyalarni innovatsion va texnologik ishlab chiqarish tarmoqlariga yo'naltirish	Mehnat unumdorligi va mahsulot raqobatbardoshligining oshishi
4	Yashil investitsiyalarning rivojlanishi	Energiya tejamonkor, ekologik toza va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish	Energiya samaradorligi va ekologik barqarorlikning ta'minlanishi
5	Hududiy investitsion faollikning kuchayishi	Investitsiyalarni hududlarning sanoat salohiyati va resurs imkoniyatlaridan kelib chiqib taqsimlash	Hududlar iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarning qisqarishi
6	Investitsiya infratuzilmasining takomillashuvi	Sanoat zonalari, logistika, muhandislik-kommunikatsiya va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish	Investorlar uchun qulay sharoitlarning yaratilishi
7	Raqamlashtirish va investitsiya jarayonlarini soddalashtirish	Investitsiya loyihalarini elektron platformalar orqali boshqarish va monitoring qilish	Shaffoflik va investitsiya loyihalarini amalga oshirish tezligining oshishi
8	Mahalliyashtirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish	Import o'rnini bosuvchi hamda eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb qilish	Tashqi savdo salohiyati va valyuta tushumlarining oshishi

Ushbu tendensiyalar sanoat korxonalarining texnologik darajasini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash, yangi ish o'rinlarini yaratish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari va sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etishning mavjud rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqib, investitsion faollikni yanada oshirish uchun, avvalo, investitsiya loyihalarini tanlash, baholash va monitoring qilishning raqamli mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bunda istiqbolli sanoat loyihalari, ularning moliyaviy samaradorligi, infratuzilma bilan ta'minlanganligi, mavjud resurslar va kutilayotgan iqtisodiy natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yagona elektron platformada shakllantirish investorlar uchun axborot ochiqqligini oshiradi.

Shuningdek, xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish hamda "yagona darcha" tamoyili asosida xizmatlarni raqamlashtirish zarur. Bu investitsiya





loyihalarini amalga oshirish muddatlarini qisqartirish, investorlarning vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Sanoat tarmoqlarida investitsiyalarning samaradorligini oshirish maqsadida yuqori qo'shilgan qiymatga ega, innovatsion, eksportbop va energiya tejamkor ishlab chiqarish loyihalarini ustuvor moliyalashtirish lozim. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan loyihalarga moliyaviy va soliq imtiyozlarini differensial asosda qo'llash sanoatning texnologik rivojlanishini jadallashtiradi.

Bundan tashqari, hududlarning investitsiyaviy salohiyatidan samarali foydalanish muhim yo'nalishlardan biridir. Har bir hududning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, transport-logistika imkoniyatlari va mavjud sanoat infratuzilmasidan kelib chiqib investitsiya loyihalarini shakllantirish hamda hududiy investitsiya xaritalarini muntazam yangilab borish maqsadga muvofiq. Bu investitsiyalarning hududlar bo'yicha samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sanoat zonalarida muhandislik-kommunikatsiya va logistika infratuzilmasini oldindan tayyorlash, elektr energiyasi, gaz, suv, yo'l va boshqa zarur infratuzilma bilan ta'minlangan investitsiya maydonlarini ko'paytirish investorlar uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi. Investitsiya loyihalarini baholashda esa faqat jalb qilingan mablag' hajmini emas, balki yaratilgan ish o'rinlari, ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati, mahalliyashtirish darajasi, soliq tushumlari va qo'shilgan qiymat kabi ko'rsatkichlarni ham asosiy mezon sifatida qo'llash taklif etiladi.

XULOSA

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biridir. So'nggi yillarda sanoat sohasida investitsion faollikning ortishi yangi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish va mavjud korxonalarni texnik va texnologik jihatdan yangilash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Kelgusida sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish uchun investitsiya loyihalarini tanlash va monitoring qilishning raqamli mexanizmlarini takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, investorlar uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish hamda hududlar kesimida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi sanoatning barqaror rivojlanishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.unido.org/news/> UNIDO Industrial Development Report 2024.





2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
<https://president.uz/uz/lists/view/8834>.
3. UNIDO, "Industrial Development Report", UNIDO, 2013. Веб - сайт:
www.unido.org
4. Chang H.J., Lin J. Should Industrial Policy in Developing Countries conform Comparative Advantage or Defy it? A debate between Justin Lin and Ha-Joon Chang // Development Policy Review. 2009. No. 27(5).
5. Полозюк А.Г. Модели промышленной политики [Электронный ресурс] / А.Г. Полозюк. — Московская государственная академия приборостроения и информатики. — Режим доступа:
http://www.rusnauka.com/CCN/Economics/15_polozjuk.doc.htm (дата обращения: 13.09.2026).
6. Hamroyev H.R. Zonal siyosat: metodologiya, xorijiy tajriba va qo'llash yo'nalishlari. Monografiya. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. T.: 2008. - 352 b.
7. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investisiyalar. O'quv qo'llanma. / i.f.d., professor A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. - T.: "Moliya", 2010, 256 b.
8. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi sayti.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjournal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy